



Translation schools in ancient China and their cross-cultural impact

Dinora FAKHRIDDINOVA¹, Khusan TUGALOV²

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form 5
October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online 25
November 2025

Keywords:

Zhou Dynasty,
Han Dynasty,
Shigao,
Dao An,
Kumarajiva,
Zhi Qian,
Sui Dynasty,
Tang Dynasty,
Xuanzang,
Yuan Dynasty,
Ming Dynasty,
Laozi,
Li Zhizao,
Xu Guangqi,
Taizong,
Chang'an,
Xue Fengzuo.

ABSTRACT

It includes information about the earliest attempts at translating from one language into another, the reforms carried out in translation, the rules and principles of rendering a text into another language, the historical stages of development, the high-level benefits gained from translation, as well as international relations.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp88-93>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student, Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: faxriddinovadinara79@gmail.com

² Senior Lecturer, Department of Chinese Philology, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Qadimgi Xitoydagi tarjima maktablari va ularning madaniyatlararo ta'siri

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Chjou,
Han,
Shigao,
Dao An,
Kumarajivani,
Zhi Qian,
Suy sulolasi,
Tan sulolasi,
Xuanzan,
Yuan va Min sulolalari,
Lao Szi,
Li Zhizao,
Xu Guanqi,
Tai Zong,
Changan,
Xue Fengzuo.

Bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishdagi eng avvalgi harakatlar, tarjima qilishda amalga oshirilgan islohotlar, matnni ikkinchi tilga o'girishdagi qonun-qoidalar, tarixiy rivojlanib kelish bosqichlari, tarjimadan olingan yuqori saviyadagi foydalar, mamlakatlararo aloqalar kabi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Школы перевода в Древнем Китае и их межкультурное влияние

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Чжоу,
Хань,
Шигао,
Дао Ань,
Кумараджива,
Чжи Цянь,
династия Суй,
династия Тан,
Сюаньцзан,
династии Юань и Мин,
Лао-цзы,
Ли Чжицзао,
Сюй Гуанци,
Тай-цзун,
Чанъань,
Сюэ Фэнцзо.

Содержит информацию о первоначальных действиях при переводе с одного языка на другой, реформах, осуществленных в процессе перевода, правилах перевода текста на второй язык, этапах исторического развития, высоком уровне пользы, получаемой от перевода, а также межгосударственных отношениях.

Xitoydagi dastlabki tarjima faoliyati – Xitoyda tarjima faoliyatlari eng avvalo Chjou sulolasi davriga (miloddan avvalgi 1100-yil) borib taqaladi. O'sha davrdagi hujjatlarda tarjima asosan davlat kotiblari tomonidan olib borilgani, ularning vazifasi esa asosan mafkuralarni yetkazish bo'lgani qayd etilgan. Kechki Chjou davriga oid yozma manbada imperator olimi Jia Gonyan tarjimini shunday ta'riflagan: "Tarjima – o'zaro tushunish uchun bir yozma tilni boshqa yozma til bilan almashtirish, lekin ma'nosini o'zgartirmaslikdir." Bu ta'rif oddiy bo'lsa-da, qadimgi Xitoyda tarjima nazariyasi mavjud bo'lganini isbotlaydi. Odamlar tarjima amaliyotidan kelib chiqqan holda tamoyillarni

umumlashtirishga moyil bo'lishgan. Xitoy besh ming -yildan ortiq qadimiy sivilizatsiyaga va uch ming yillik tarjima tarixiga ega. Han sulolasi (mil.av. 206 – mil. 220) davrida tarjima chet el bilimlarini yoyishda muhim vositaga aylandi. Hindistonda paydo bo'lgan va uzoq vaqt o'sha yurt tashqarisida tarqalmagan buddizm eramizning birinchi asri o'rtalarida Xitoyga kirib kela boshladi. Shu bois, buddist yozuvlari sanskrit tilidan xitoy tiliga tarjima qilinishi kerak bo'ldi. An Shigao ismli fors tarjimon ayrim buddist sutralarini (sanskrit tilidagi buddist matnlar) xitoy tiliga o'girdi va shu bilan birga hind astronomiyasini ham Xitoyga tanishtirdi. O'sha davrdagi yana bir mashhur tarjimon Zhi Qian bo'lib, u 30 ga yaqin buddist matnlarini so'zma-so'z tarjima qildi. Ammo tarjimalar juda so'zma-so'z bo'lgani uchun tushunish qiyin edi. Shu davrda tarjimada asosiy masala sifatida so'zma-so'z tarjima va erkin tarjima haqida bahslar paydo bo'la boshladi. V asrga kelib, buddist yozuvlarini tarjima qilish katta miqyosda rasmiy tashkil etildi. Shu maqsadda Davlat tarjima maktabi ochildi. Uning birinchi direktori sifatida Dao An tayinlandi. U sanskrit tilini bilmaganligi sababli qat'iy so'zma-so'z tarjima tarafdori bo'ldi. U mashhur hind rohibi Kumarajivani (350–410) ham taklif qildi. Kumarajiva ilgari qilingan tarjimalarni chuqur tahlil qilib, buddist matnlarini tarjima qilish usullarida katta islohot o'tkazdi. U tarjimada aniqlikka katta e'tibor qaratdi va erkin tarjima usulidan foydalanib, sanskrit sutralarining asl mohiyatini yetkazishga harakat qildi. U Xitoy tarjima tarixida birinchi bo'lib tarjimonlar o'z nomini tarjimalariga qo'yishi kerakligini aytgan. Kumarajiva ko'plab sanskrit sutralarini o'zi tarjima qildi. Uning kelishi bilan tarjima maktabi ravnaq topdi, tarjimalari esa buddizmning Xitoyda ildiz otishiga sabab bo'ldi. Buddizm hatto daosizmga jiddiy raqib bo'lib chiqdi. Kumarajiva davridan VIII asrgacha sanskritdan tarjimalar soni ham, aniqligi ham sezilarli darajada oshdi. Milodning I asri o'rtalaridan V asrgacha bo'lgan davr Xitoyda tarjimaning ilk bosqichi hisoblanadi. Bu davrda asosan diniy matnlar tarjima qilingan. Tarjima nazariyasidagi asosiy masala esa "so'zma-so'z tarjima va erkin tarjima" bo'lgan. "Aniqlik va ravonlik" buddist yozuvlarini tarjima qilishning asosiy mezonlari sifatida ko'rilgan. Bu davrni Xitoydagi dastlabki tarjima nazariyasi va zamonaviy tarjima nazariyasining poydevori deb hisoblash mumkin.

Xitoyda tarjimaning birinchi yuksalish davri. Tarjima va bilimlarni chetdan olib kirish Suy sulolasi (581–618) va Tan sulolasi (618–907) davrida odatiy holga aylandi. Bu davr Xitoy tarixida ulug'vorlik, kengayish va san'atning gullab-yashnashi davri bo'lgan. Shu sabab bu davr Xitoyda tarjimaning birinchi yuksalish davri hisoblanadi. Ammo bu davrda ham tarjimalar asosan buddist yozuvlari bilan cheklanib qoldi. Bu davrda tarjimonlarning aksariyati buddist rohiblari edi. Ular sanskrit tilini mukammal bilishar, tarjima nazariyasini ham chuqur o'rganishgan edi. Chunki tarjimalar asosan diniy matnlarga oid bo'lgani uchun, ular tarjimon quyidagi tamoyillarga amal qilishi kerak deb hisoblashgan: 1. Buddist ta'limotiga sodiq bo'lish; 2. O'quvchilar – ya'ni buddist e'tiqod qiluvchilarga foyda keltirish; 3. Shon-shuhrat uchun emas, balki buddist ta'limotini tarjima qilishga e'tibor qaratish.

Xuanzang (600–664) Xitoyda tarjimaning birinchi yuksalish davrida eng muhim shaxs Tang sulolasi rohibi bo'lgan. U mashhur "G'arbga sayohat" asaridagi bosh qahramon sifatida ham tanilgan. 628-yilda u Tang imperiyasining poytaxti Changan (hozirgi Sian) shahridan muqaddas matnlarni izlab Hindistonga safar qilgan. 645-yilda qaytib kelganda u Budda yodgorliklari, oltin haykalchalar, 124 ta "Mahayana" (Buyuk yo'l) sanskrit aforizmlari va 520 ta qo'lyozma bilan qaytadi. Bu xazinalarni tashish uchun 22 ta otli karvon kerak bo'lgan. Imperator Tai Zong uni tantanali kutib olib, unga barcha sharoitlarni

yaratib berdi va Changanda mashhur “Katta Yovvoyi G’oz pagodasi”ni qurdirib berdi. Xuanzang umrining qolgan qismini shu pagodada hamkorlari bilan birga olib kelgan bebaho qo’lyozmalarni tarjima qilishga bag’ishladi. 19 yil davomida u 1335 jild buddist qo’lyozmalarini tarjima qildi. Bu tarjimalar tufayli buddizm butun Xitoy bo’ylab mashhur bo’ldi, hatto imperatorning o’zi ham buddist bo’ldi.

Birinchi “xitoy tilidan tashqariga” tarjima. Xuanzang Xitoyda birinchi bo’lib xitoy tilidan boshqa tillarga ham tarjima qilgan. U daosizm asoschisi Lao Szining ayrim asarlarini sanskrit tiliga o’giran, shuningdek hind xalqi uchun boshqa klassik xitoy adabiyotlarini tarjima qilishga ham uringan. U nafaqat buyuk tarjimon va tashkiliy ishlar rahbari, balki buyuk tarjima nazariyotchisi ham edi. Xuanzang “Tarjima ham haqqoniy, ham xalq uchun tushunarli bo’lishi kerak” degan ushbu mashhur mezonni belgilab berdi. Xuanzang bu yo’l bilan ikki qarama-qarshi yo’nalishni birlashtirdi: Dao An (Suy davri)ning fikriga ko’ra tarjima qat’iy so’zma-so’z, ya’ni matn so’zma-so’z o’girilishi kerak bo’lgan. Kumarajiva (Tang davri boshlarida) esa butunlay erkin tarjimani yoqlagan, chunki bu tarjimani yanada chiroyli va tushunarli qilardi. Xuanzang ikkala tarjima qoidalarining afzalliklarini birlashtirib, tarjimada aniqlik va ravonlikka erishishga intildi. Shu tariqa u tarixiy ahamiyatga ega bo’lgan mezonni ishlab chiqdi. Amaliyotda u kengaytirish, qisqartirish, maqsad tilidan tengma-teng so’zlarni olish va boshqa turli usullarni qo’lladi. Shu sababli u Xitoy tarixida haqiqiy buyuk tarjimonlardan biri sifatida qadrlanadi, chunki u ham tarjima amaliyotiga, ham nazariyasiga ulkan hissa qo’shgan olimdir.

Yangi tarjima davri. Xuanzang davri hozirgi tarjimonlar tomonidan “Yangi tarjima davri” deb ataladi. Bu davrda tarjimalar sifati yuqori bo’ldi, chunki tarjimalarni asosan Hindistonda tahsil olib, sanskritni mukammal o’zlashtirgan xitoylik rohiblar amalga oshirishardi. Ular diniy ruhni ham, ikki tilni ham chuqur bilishardi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Dao An va Kumarajiva davrida tarjimalar ko’pincha hind rohiblari tomonidan qilinar, ular xitoy tilini va madaniyatini yaxshi bilmaganliklari sababli tarjimalar ba’zida tushunarsiz chiqardi.

Yuan va Min sulolalari davrida texnik tarjimalar. Yuan (1271–1368) va Min (1368–1644) sulolalari davrida sutralarni tarjima qilish ahamiyatini yo’qotdi. Yuan hukmdorlari e’tiborini G’arbga qaratganlaridan so’ng, arablar Xitoyga ko’chib kelib, hatto amaldor yoki savdogar ham bo’lishdi. Ularning ayrim bilimdon, yuksak lavozimli kishilari xitoy tilini o’rganganlaridan so’ng, arabcha yoki yevropacha ilmiy asarlarni tarjima qildilar. Arab olimi Nosiriddin Tusiy (1201–1274) Evklidning “Elementlar” asarini, astronomiyaga oid ayrim asarlarni, jumladan Ptolemeyning “Almagest” kitobini hamda Aflotunning “Mantiq” asarini tarjima qilgan. Shuningdek, arab tilidagi farmakopeya – “Al-Jomi’ fi al-Adwiya al-Mufradah” (“Dorilar lug’ati”) Yuan sulolasi oxirida tarjima qilinib, 36 jildlik asar sifatida 1400 dan ortiq dori vositalarini o’z ichiga olgan. Bu keyingi sulola davrida “Hui Hui Yao Fang” nomi bilan chop etilgan. Keyinchalik, Min imperatori Chu Yuan Chjan arab kelib chiqishli ikki amaldor Ma Hama va Ma Shyihei’ga, xitoylik amaldorlar Li Chong va U Bochjong yordamida astronomiyaga oid ikki arabcha kitobni tarjima qilishni buyurdi. Biroq bu tarjimalar asosan ayrim olimlarning qiziqishini qondirish uchun amalga oshirilgan edi. Ular ma’lum darajada qo’llanma sifatida foydali bo’lsa-da, ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega emas edi. Vaziyat XVI asr oxiriga kelib o’zgara boshladi. Xitoyga g’arblik nasroniy missionerlar, xususan iyezuitlar kelishi bilan, Xitoy Yevropa bilan yaqin aloqaga kirishdi. O’sha paytda Yevropa fan va texnologiya sohalarida Xitoydan ilgari ketayotgan edi. Xitoy amaldorlari va ziyolilari bilan munosabatlarni osonlashtirish

maqsadida missionerlar G'arb ilm-faniga oid asarlar va xristianlik matnlarini tarjima qildilar. 1582-yildan 1773-yilgacha (Qing sulolasi boshlarida) yetmishdan ortiq missioner shunday faoliyat bilan shug'ullangan. Ular turli millatlardan bo'lishgan: italiyaliklar (Matteo Ricci, Longobardi, De Urbsis, Aleni, Rho), portugal (Fransis Furtado), shveytsariyalik (Jan Terrenz), polyak (Jan Nikolas Smogolenshi), frantsuzlar (Ferdinand Verbiest, Nikolas Trigaut). Missionerlarga ko'pincha xitoylik hamkorlar, jumladan, Xu Guangqi (so'nggi Min davrida mashhur olim va bosh vazir), Li Zhizao (olim va davlat amaldori), Van Chjen (muhandis va amaldor), Xue Fengzuo (olim) yordam bergan. Matteo Ricci 1607-yilda "Evklid Elementlari"ni tarjima qilganda Xu Guangqi unga yordam bergan, shuningdek, nemis iyezuiti va matematik Christophorus Clavius (1537–1612)ning "Astrolabium" asarini tarjima qilganda Li Zhizao bilan hamkorlik qilgan. Xitoy olimlari uchun tarjima faqat matnni qayta ko'chirish emas, balki tarjima qilingan matnlar keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Masalan, Li Zhizao "Astrolabium" asariga yozgan muqaddimasida G'arb astronomiyasi asoslarini xitoy tilida bayon qilgan va yerning yumaloq hamda harakatda ekanini ta'kidlagan. 1608-yilda Ricci va Li Dang Claviusning "Trattato della figura isoperimetre" ("Izoperimetrik shakllar haqida risola") asarini tarjima qilib, aylana ichiga yozilgan teng tomonli ko'pburchaklar konsepsiyasini Xitoyga tanishtirdilar. 1612-yilda De Ursis va Xu Guangqi tomonidan tarjima qilingan 6 jildlik asar Xitoydagi ilk gidrologiya va suv omborlariga oid ilmiy ish bo'lib, fiziologiya masalalarini ham yoritgan va dorilarni distillatsiya qilish usullarini tasvirlagan. Xu Guangqi tarjima jarayonida tajribalar ham o'tkazgan, ya'ni tarjima qilayotgan kitobni darslik sifatida ishlatib, yangi kashfiyotlarga erishgan. 1613-yilda Matteo Ricci va Li Zhizao yozma arifmetik amallarni – qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish usullarini ko'rsatgan tarjima qildilar. Shuningdek, 1625-yilda bir missioner olib kelgan portugal universiteti darajasidagi darslik orqali xitoyliklarga klassik mantiq ilmini tanishtirdilar. Min sulolasi davrida amalga oshirilgan tarjimalar asosan fan va texnologiya sohalariga – matematika, astronomiya, tibbiyot, gidrologiya va boshqalarga oid bo'lsa-da, bu davrda falsafa va adabiyotdan ham ayrim tarjimalar qilingan. Masalan, Li Zhizao xorijiy missionerlar yordamida Aristotelning "Haqiqat haqida" kabi ayrim asarlarini xitoy tiliga tarjima qilgan. 1625-yilda esa birinchi bor Ezop masallari ham xitoylik o'quvchilarga tanishtirilgan. Min davridagi texnik tarjimalar qadimgi Xitoyning ilmiy va texnologik rivojlanishiga xizmat qilgan. Shu tariqa, aslida xristianlikni targ'ib qilishni maqsad qilgan xorijiy missionerlar G'arb bilimlarini Xitoyga yoygan birinchi guruhga aylangan. Min davridagi tarjimalarning ikki asosiy xususiyati bor edi: 1. Tarjima mavzusi buddaviy sutralardan ilmiy va texnologik bilimlarga ko'chdi. 2. Tarjimonlar asosan olimlar va davlat amaldorlari bo'lib, ular bilimdon ziyolilar edi. Shuningdek, G'arb bilimlarini olib kelgan G'arb missionerlari ham faol qatnashdilar. Bu tarjimalar natijasida Xitoy G'arb bilimlariga ochildi va tarjimalar ilmiy hamda texnik taraqqiyotni yengillashtirdi. Min sulolasi davridagi tarjimonlar texnik tarjimaning kashshoflari sifatida shu qadar muvaffaqiyat qozondilarki, ularning ba'zi texnik terminlari bugungi kungacha ishlatilmoqda. Biroq tarjima amaliyoti haddan tashqari e'tiborga olingan, ammo bu davrda tarjima nazariyalari ishlab chiqilmagan. Tang sulolasi davridagi buddaviy sutralarni keng ko'lamda tarjima qilish bilan solishtirilganda, Min sulolasi davridagi tarjimalar Xitoy tarjima tarixi nuqtai nazaridan unchalik ta'sirchan bo'lmadi. Tang davrida tarjima amaliyoti bilan bir qatorda tizimli tarjima nazariyalarini izlash ham olib borilgan bo'lsa, Min davrida tarjimalarning asosiy maqsadi G'arb texnik bilimlarini Xitoyga tanishtirish edi.

Xitoyda tarjima tarixini o'rganish orqali u yerga chet davlatlardan kirib kelgan bilimlarni, tarjimalarning nima maqsad bilan amalga oshirilgani, uning davlatlararo olib kirgan manfaatlarini, tarjimaga hissa qo'shgan buyuk olimlar amalga oshirgan islohotlarini, tarjima jarayonida yuzaga kelgan muammolar va hozirgi davrgacha rivojlanib kelgan bosqichlari ko'zda tutildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 竺可桢. 《中国翻译史纲要》 [Zhu Kezhen. *Zhongguo fanyi shi gangyao* – Xitoy tarjima tarixi xulosalari]. 北京: 商务印书馆, 2009.
2. 罗新璋. 《中国翻译理论史稿》 [Luo Xinzhang. *Zhongguo fanyi lilun shigao* – Xitoy tarjima nazariyasi tarixi]. 北京: 中国对外翻译出版公司, 1990.
3. 许钧. 《翻译论集》 [Xu Jun. *Fanyi lunji* – Tarjima haqida maqolalar to'plami]. 上海: 上海外语教育出版社, 2005.
4. 林岗. 《中国古代翻译史》 [Lin Gang. *Zhongguo gudai fanyi shi* – Xitoy qadimiy tarjima tarixi]. 北京大学出版社, 2012.
5. 王宏印. 《佛经翻译与中外文化交流》 [Wang Hongyin. *Fojing fanyi yu Zhongwai wenhua jiaoliu* – Budda sutralarining tarjimasi va madaniy almashinuv]. 南京: 南京大学出版社, 2014.